
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32 yillik shodiyonasi bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman

Qadrli ustozlar, aziz o'quvchilar!

Siz, azizlarni, ko'p millatli jonajon xalqimizni 8-dekabr – **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32 yillik shodiyonasi bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.**

Shuni aytishim joizki, Konstitutsiya milliy davlatchiligimiz, suverenitetimiz, shu kunga qadar erishgan barcha yutuq va marralarimiz, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi sa'y-harakatlarimizning mustahkam poydevori sanaladi. Asosiy Qonunimizning jonajon O'zbekistonimiz taraqqiyotidagi beqiyos ahamiyatini yuksak qadrlaymiz.

Hayotingizda doimiy barqarorlik, rivojlanish va yangi yutuqlarning amalga oshishini, shuningdek, qalbingizni doimo ijobiy his-tuyg'ular bilan to'ldiradigan go'zal hayot va yorqin kelajak hamrohingiz bo'lishini tilayman!

Yurtimizni doimo tinchlik va farovonlik tark etmasin!

SamDCHTI akademik litseyi ijrochi direktori

Islomov Dilshodxon Umarovich!